



ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023-yil
yanvar-oktabr


Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-oktabr)




Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
64,8%



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
5 192,9
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi - **68,2 %**



Xizmatlar sohasi – bu, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-noyabr holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


(yanvar-oktabr)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-noyabr holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-oktabr)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(yanvar-oktabr)



2022


2023

■ Hajmi, mlrd. so'mda

▲ O'sish sur'ati

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi, % da

(2023-yil yanvar-oktabr)



1) Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-oktabr)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	17 393,0	100,0	109,4
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	6 198,4	35,6	111,2
Xonobod sh.	422,3	2,4	110,3
Oltinko'l	740,3	4,3	110,1
Andijon	1 066,3	6,1	108,5
Baliqchi	952,2	5,5	109,3
Bo'ston	280,9	1,6	106,4
Buloqboshi	560,1	3,2	109,2
Jalaquduq	771,1	4,4	109,5
Izboskan	810,4	4,7	106,6
Ulug'nor	240,3	1,4	108,6
Qo'rg'ontepa	863,5	5,0	108,8
Asaka	1 264,2	7,3	106,3
Marhamat	699,3	4,0	108,0
Shahrihon	958,0	5,4	109,0
Paxtaobod	690,7	4,0	109,4
Xo'jaobod	875,0	5,0	107,7

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023-yil yanvar-oktabr)

Hajmi, ming so'mda O'sish sur'ati





Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar-oktabr)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	17 393,0	100,0	109,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	847,1	4,9	121,4
Moliyaviy xizmatlar	3 740,8	21,5	114,6
Transport xizmatlari	3 410,6	19,6	103,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 317,7	19,1	103,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	339,2	2,0	107,8
Savdo xizmatlari	5 222,8	30,0	106,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	419,9	2,4	104,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	907,3	5,2	130,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	310,1	1,8	107,1
Ijara xizmatlari	327,4	1,9	100,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	392,5	2,3	108,8
Shaxsiy xizmatlar	848,7	4,9	101,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	163,1	0,9	106,1
Boshqa xizmatlar	463,3	2,7	117,8


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi


(yanvar-oktabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda O'sish sur'ati

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar


(2023- yil yanvar-oktabr)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **29,7** foizni yoki **1 109,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan Andijon shahrida yuqori o'sish sur'ati **117,8** % ni tashkil etdi.




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Transport xizmatlarining umumiy hajmi-da avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **19,1 %**.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **1 336,1** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

1) (2023-yil yanvar-oktabr)




1) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **81,9** foizni tashkil etdi.





Hajm, mlrd. so'mda

O'sish sur'ati, %

Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-oktabr)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %
Andijon viloyati.	5,222,8	30,0 %
Andijon sh.	2 049,7	33,1 %
Xonobod sh.	110,9	26,3 %
Oltinko'l	283,7	38,3 %
Andijon	313,6	29,4 %
Baliqchi	242,0	25,4 %
Bo'ston	91,8	32,7 %
Buloqboshi	158,0	28,2 %
Jalaquduq	234,6	30,4 %
Izboskan	188,3	23,2 %
Ulug'nor	48,1	20,0 %
Qo'rg'ontepa	288,7	33,4 %
Asaka	391,5	31,0 %
Marhamat	192,1	27,5 %
Shahrixon	246,8	25,8 %
Paxtaobod	171,1	24,8 %
Xo'jaobod	212,4	24,3 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda


Ulushi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **95,5** foizni tashkil etdi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)




2023- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **907,3** mlrd so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **130,5** % ni tashkil etdi.




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **310,1** mlrd so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,8 %** ini tashkil etdi.



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **419,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,7 %** ni tashkil etgan.




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichim-liklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **85,5** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)



2022

2023

■ Hajmi, mlrd. so'mda



○ O'sish sur'ati

Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023-yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)



2022-yilning yanvar-oktabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **26,8** mlrd. so'mga oshib, **339,2** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



maishiy texnika, uy va bog' jihozlari ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **20,9** foizini tashkil etadi.


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● — O'sish sur'ati

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023-yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda ■ Hajmi, mlrd. so'mda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023-yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)



2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **21,9** mlrd. so'mga oshib, **163,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **52,2** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari – bu, ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi – bu, sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi – bu, kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.